



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 78 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ilhom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	

NOTO'LIQ OILALARDAGI ONALARNING TARBIYAVIY USLUBLARI VA FARZANDLARINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK MOSLASHUVI (O'ZBEKISTON NAMUNASIDA)

Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Pedagogika va tillar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston psixolog olimlarining ilmiy merosi asosida noto'liq oiladagi ijtimoiy munosabatlar tizimi, oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi va yakka holda farzand tarbiyalayotgan ayollarda kuzatiladigan ayb hissi fenomeni nazariy-metodologik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida to'liq va noto'liq oilalarning qiyosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ona shaxsining farzanddagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri, ona-bola munosabatlarining emotsional-kommunikativ jihatlari, oilaviy zo'ravonlikning psixologik oqibatlari, qiz bolalarda erkak obrazining shakllanish xususiyatlari, shuningdek oiladagi rollar dinamikasi va bola shaxsining ijtimoiylashuvini ta'minlovchi psixologik mexanizmlar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Maqola natijalari noto'liq oila sharoitida farzand tarbiyasi bilan bog'liq psixologik muammolarni hal etishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: noto'liq oila, ona-bola munosabatlari, oilaviy rollar taqsimoti, ayb hissi, ijtimoiy tasavvurlar, oilaviy zo'ravonlik, bola shaxsining shakllanishi, ijtimoiylashuv mexanizmlari, ona shaxsi, erkak obrazi.

Abstract: This article provides a theoretical and methodological analysis of the system of social relations in single-parent families, the redistribution of family roles, and the phenomenon of guilt experienced by women raising children independently, based on the scientific heritage of Uzbek psychologists. The study examines the comparative socio-psychological characteristics of complete and single-parent families, the influence of the mother's personality on the formation of children's social representations, the emotional and communicative aspects of mother-child relationships, the psychological consequences of domestic violence, the peculiarities of male image formation in girls, as well as the dynamics of family roles and psychological mechanisms ensuring the socialization of the child's personality. The findings of the article may serve as a theoretical basis for addressing psychological problems related to child upbringing in single-parent family conditions.

Key words: single-parent family, mother-child relationships, distribution of family roles, feeling of guilt, social representations, domestic violence, personality formation of the child, mechanisms of socialization, mother's personality, male image.

Аннотация: В данной статье на основе научного наследия узбекских психологов проведён теоретико-методологический анализ системы социальных отношений в неполной семье, перераспределения семейных ролей, а также феномена чувства вины у женщин, самостоятельно воспитывающих детей. В рамках исследования изучены сравнительные социально-психологические особенности полных и неполных семей, влияние личности матери на формирование социальных представлений ребёнка, эмоционально-коммуникативные аспекты отношений матери и ребёнка, психологические последствия семейного насилия, особенности формирования образа мужчины у девочек, а также динамика семейных ролей и психологические механизмы социализации личности ребёнка. Результаты статьи могут служить теоретической основой для решения психологических проблем, связанных с воспитанием детей в условиях неполной семьи.

Ключевые слова: неполная семья, отношения матери и ребёнка, распределение семейных ролей, чувство вины, социальные представления, семейное насилие, формирование личности ребёнка, механизмы социализации, личность матери, образ мужчины.

KIRISH

Zamonaviy O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar oila institutining strukturaviy hamda funksional jihatdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yillik davomida nikohdan ajralishlar sonining ortishi, mehnat migratsiyasi ko'lamining kengayishi va demografik jarayonlardagi o'zgarishlar natijasida noto'liq oilalar ulushi sezilarli darajada oshgan.



Mazkur tendensiya nafaqat sotsiologik, balki murakkab psixologik muammo sifatida ham namoyon bo'lib, bola shaxsining ijtimoiylashuvi, emotsional rivojlanishi va shaxslararo munosabatlar tizimining shakllanishiga ko'rsatadigan kompleks ta'siri bilan ilmiy hamjamiyat e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila - shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv instituti bo'lib, unda individning psixik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan emotsional, kognitiv va aksiologik asoslar shakllanadi. Zamonaviy psixologiya fanida oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat, emotsional yaqinlik hamda tarbiyaviy ta'sir uyg'unligi bola shaxsining sog'lom rivojlanishini ta'minlovchi tizim hosil qiluvchi omillar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur omillar majmui bolaning xarakterologik xususiyatlari, xulq-atvor stereotiplari va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi, J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasi hamda E. Eriksonning psixosozial rivojlanish modeliga muvofiq, bolaning dunyoqarashi, axloqiy tasavvurlari va shaxslararo munosabatlar modellari aynan oilaviy muhitda interiorizatsiya qilinadi. Oila shaxs rivojlanishining tizim hosil qiluvchi omili sifatida bolaga nafaqat ijtimoiy tajribani uzatadi, balki uning emotsional barqarorligi, o'z-o'ziga bahosi hamda kelajakdagi shaxslararo munosabatlar paradigmasini ham belgilab beradi.

Noto'liq oila sharoitida ushbu tarbiyaviy potensial muayyan darajada deformatsiyaga uchraydi. Ota-ona rollarining bitta shaxs zimmasida jamlanishi, emotsional resurslarning cheklanishi va ijtimoiy-rolli identifikatsiya jarayonining murakkablashuvi bola shaxsining rivojlanishida o'ziga xos psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Bu holat O'zbekiston sharoitida milliy-madaniy kontekst bilan o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lib, mahalliy psixologiya fanida maxsus ilmiy tahlilni taqozo etadi.

O'zbekiston psixolog olimlarining ilmiy izlanishlarida noto'liq oiladagi ijtimoiy munosabatlar, oilada rollar taqsimoti, ayollarda namoyon bo'luvchi aybdorlik hissi va shu kabi masalalar atroflicha o'rganilgan. Xususan, D.U. Abdullayeva, M.X. Asranbayeva, D.B. Islamova, M.O. Jalolova, Sh.M. Rustamova, S.M. Sultanova, G.T. Yadgarova, G.S. Yunusova, X.Sh. Ziyavutdinova, Z.A. Shaumarova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida to'liq va noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri, ona va bola munosabatlari, oilaviy zo'ravonlik, qizlarda erkak obrazi haqidagi tasavvurlar, oiladagi rollar taqsimoti hamda bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. G.T. Yadgarova^[1] aynan noto'liq oila muammosini ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tadqiq etgan olimlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi "Noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishida O'zbekiston hududida noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiylashuviga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi onalarning psixologik mavqeyini aks ettiruvchi ijtimoiy tasavvurlar tizimini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan.

Tadqiqotchining ilmiy izlanishlari natijasida noto'liq oila fenomenining etnopsixologik xususiyatlari, noto'liq oiladagi ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, shaxsning o'zini-o'zi baholashi, tabiiy ravishda, taqdir taqozosi bilan liderlik maqomini olgan ayol - ona mavqeyining farzand ijtimoiylashuviga ta'siri ochib berilgan. Bundan tashqari, noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolaning ijtimoiy tasavvurlari doirasida uning hayotiy qadriyatlarga munosabati ham ilmiy jihatdan asoslangan.

G.T. Yadgarova^[1] ilmiy izlanishlari asosida noto'liq oilada tarbiyalanayotgan o'smirlar turli ijtimoiy ta'sirlarni o'zlashtirish va shaxs dunyoqarashining shakllanishi uchun sezitiv davr ekani aniqlangan. Shu sababli bu davrda bola xulqidagi barcha holatlar, hatto ijtimoiy normalardan og'ishlar ham oiladagi shaxslararo munosabatlar xarakteri, onaning ijtimoiy tasavvurlari va ustanovkalari bilan bevosita bog'liq ekani ko'rsatib berilgan. Mazkur muammo yuzasidan ilgari surilgan dastlabki ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar tadqiqot ishining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshiradi.

G.S. Yunusova^[2] o'z tadqiqotlarida O'zbekiston sharoitida to'liq va noto'liq oilalar muhitida ona shaxsi ta'sirida o'smir hamda ilk o'spirin yoshdagi o'g'il va qizlarning hayotiy qadriyatlarga munosabatlari, istiqbol haqidagi tasavvurlarini aniqlash hamda ushbu tasavvurlarni rivojlantirish yuzasidan uslubiy ta'minotni takomillashtirishga e'tibor qaratgan. Tadqiqotchining "To'liq va noto'liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri" mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida to'liq va noto'liq oilalarda ona tarbiyasi ta'sirida bo'lgan o'smirlar va ilk o'spirinlik yoshidagi o'g'il hamda qiz bolalarning hayotiy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy mo'ljallari, ijtimoiy tasavvurlari va istiqbol haqidagi obrazlarning xususiyatlari ochib berilgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida o'smir va ilk o'spirinlarning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mo'ljallari hamda istiqbol haqidagi tasavvurlarini psixodiagnostika qilish tizimi takomillashtirilib, amaliyotga joriy etilgan. Bundan tashqari, to'liq va noto'liq oilalarda farzand tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan muammolarning oldini olishga yo'naltirilgan psixologik ma'rifat, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya va psixoprofilaktika ishlari bo'yicha amaliy dastur ishlab chiqilgan.

G.S. Yunusova ^[2] tadqiqotlari doirasida olingan ma'lumotlarga ko'ra, noto'liq oilalardagi o'smir va o'spirinlarda shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy masofa saqlash, "begonalashuv", tengdoshlariga nisbatan avtoritar, xudbin, konform va agressiv munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar aniqlangan. Shuningdek, oila turidan qat'i nazar, o'smir va ilk o'spirin yoshdagi o'g'il bolalar qizlarga nisbatan boshqalarning qo'llab-quvvatlashiga kuchliroq ehtiyoj sezishi, "voyaga yetganlik hissi" paydo bo'lishiga qaramay, psixologik ko'makka muhtojlik ayniqsa noto'liq oiladagi o'g'il farzandlarga xos ekani qayd etilgan. Tadqiqot natijalarida noto'liq oiladagi onaning yagona "yetakchi" sifatidagi mavqeyi, oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish istagining ustuvorligi bilan o'smir va ilk o'spirinning "o'zini katta bo'lib qolganlik" istagi o'rtasidagi ziddiyat ona-bola munosabatlarida nizolarni keltirib chiqaruvchi omil ekanligi empirik jihatdan tasdiqlangan.

M.X. Asranbayeva ^[3] noto'liq oila bolalari va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi bo'yicha tadqiqot olib borgan. Tadqiqotchining "Noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida "noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash" tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish, uning tuzilmasi va komponentlarini aniqlash, "oilalari - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligi asosida pedagogik profilaktikani takomillashtirish, gerontopedagogik yondashuv asosida ijtimoiy hayotga tayyorlash modelini ishlab chiqish hamda kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Tadqiqotchining ilmiy izlanishlari natijasida noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining tuzilmasi, ya'ni komponentlari, ustuvor yo'nalishlari va mezonlari aniqlashtirilgan. Bunda yaqin kattalarning tarbiyaviy ta'sirini maqbullashtirish, tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan, germeneytik va psixoterapevtik yondashuvlarni adaptiv qo'llash bilan o'zaro uyg'unlikni ta'minlash asosiy omil sifatida belgilangan. Shuningdek, umumta'lim maktabi va mahalla hamkorligi asosida noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik-profilaktik xususiyatlarini milliy an'analar, qo'shnichilik, muruvvat va saxovat fazilatlarining psixologik imkoniyatlarini real baholash asosida aniqlashtirilgan.

M.X. Asranbayeva ^[3] ilmiy izlanishlari asosida noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning gerontopedagogik modeli takomillashtirilgan. Uning amaliy komponenti avlodlararo hamkorlik, ma'naviy-axloqiy xususiyatlar transformatsiyasi, milliy tarbiya metodlari - ibrat, namuna, daxldorlik, hamdardlik, bosiqlik va mulohazakorlikning kundalik turmush tarziga ta'sir barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari, maktab psixologi va ijtimoiy ish xodimining "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi hududiy bo'limlari mutaxassislari bilan tizimli hamkorligini tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Z.A. Shaumarova ^[4] o'z tadqiqotlarida noto'liq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik muammolarini ilmiy asoslab bergan. Tadqiqotchining "Noto'liq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida noto'liq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish masalalari qamrab olingan.

Tadqiqot natijasida noto'liq oilada tarbiyalangan bolalarda gender xususiyatlar, jumladan, o'g'il bolalarda agressivlik, nutq madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, kleptomaniyaga moyillik va ayrim zararli odatlarning ko'proq uchrashi, qizlarda esa hasad, rashk hamda nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirishga moyillik kabi xususiyatlar aniqlangan. Bundan tashqari, noto'liq oilada bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlovchi potensial imkoniyatlar - referent doiradagi namunaviy shaxslar, boladagi tug'ma layoqat, sport, san'at va fan yo'nalishidagi iqtidor - noto'liq oilada voyaga yetgan taniqli shaxslarning hayotiy tajribasini o'rganish asosida takomillashtirilgan.

Z.A. Shaumarova [4] tomonidan noto'liq oilada bola tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiy-pedagogik diagnostik metodika validlik va ishonchlilik talablari asosida takomillashtirilgan. Shuningdek, noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik muammolarini oldini olish va bartaraf etish modeli bola shaxsining ijtimoiy-pedagogik jarayonda faol ishtirokini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

D.U. Abdullayeva ^[5] o'z ilmiy tadqiqotlarida o'zbek oilasida ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarga xos xususiyatlarni belgilab beruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni kompleks tadqiq etishga hamda ularni konstruktiv yo'nalishda rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Tadqiqotchining "O'zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari" mavzusidagi psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasida o'zbek oilasida ona va farzand munosabatlaridagi etnomadaniy o'ziga xoslik, bolaning yoshi va jinsi omilining namoyon bo'lish xususiyatlari empirik jihatdan aniqlangan. Shuningdek, onaning farzand bilan munosabatlarida turli ijtimoiy-psixologik omillarning kombinatsion ta'siri tufayli yuzaga keladigan differensial psixologik xilma-xillik yo'nalishlari, ona-bola munosabatlaridagi kommunikativ ustanovkalar va ijtimoiy persepsiyaga oid individuallikning bolaning oiladan tashqaridagi ijtimoiylashuviga ta'siri dalillangan.

Tadqiqotchining ilmiy izlanishlari natijasida o'zbek oilasidagi onaning farzand bilan munosabatlarida turli kategoriyadagi omillar - onaning ma'lumot darajasi, turmush qurish yoshi, bolalarning yoshi, jinsi va etnik



mansubligi bilan bog'liq omillar - kombinatsion ta'sir ko'rsatishi oqibatida yuzaga keladigan differensial psixologik xilma-xillik yo'nalishlari sharhlab berilgan. Shuningdek, bolaning ona bilan munosabatlari unda kommunikativ ustanovkalar, ijtimoiy persepsiya jarayonlaridagi selektivlik va guruhiy favoritizmni tushunishdagi individuallikni shakllantirishi, shu orqali guruhni idrok etish tipi - individualistik, kollektivistik yoki pragmatik tip - belgilanib, bolaning oiladan tashqaridagi ijtimoiylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslangan.

D.U. Abdullayeva ^[5] tadqiqotlari asosida ona-bola munosabatlari tizimining shaxs refleksivlik sohasi bilan bog'liq xususiyatlari, ya'ni onaning "Men-konsepsiyasi"dagi "Ona sifatida Men" va "Ideal ona" haqidagi tasavvurlari ijobiy qiziqish, direktivlik, dushmanlik, avtonomlik va beqarorlik kabi strategiyalarning ayrimlarini kuchaytirishi, boshqalarini esa susaytirishi orqali muloqot jarayoniga konstruktiv yoki destruktiv tus berishi aniqlangan. Shuningdek, o'zbek oilasida onaning farzandga munosabatida hissiy qabul qilish yoki qilmaslik, kooperatsiya, simbioz, avtoritarizm va infantilizatsiya kabi yondashuvlarning ustuvorligi bolalarda oilaviy hayot bilan bog'liq aybdorlik kayfiyati, xavotir hissi va asabiy tajanglik darajasini belgilashi empirik jihatdan tasdiqlangan. Olima tomonidan oilaviy munosabatlar tizimida o'smirlarda individual va ijtimoiy refleksiya, identifikatsiya, proyeksiya hamda kelajakdagi sog'lom oilaviy hayot imajinatsiyasi mexanizmlarini korreksion-rivojlantiruvchi yondashuv asosida faollashtirish orqali konstruktiv muloqot modelini shakllantirish metodikasi takomillashtirilgan.

D.B. Islamova ^[6] tutingan oilalar va bolalar o'zaro psixologik moslashuvining nazariy-metodologik asoslari, tutingan oila va bola o'rtasida sog'lom psixologik moslashuvni ta'minlashning ijtimoiy-etnik me'yorlari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Tadqiqotchining "Tutingan oilalar va bolalar o'zaro psixologik moslashuvining ijtimoiy-etnik xususiyatlari" mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida tutingan oilalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro psixologik moslashuvning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini tadqiq etish asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning mehribonlik uylaridagi ijtimoiy-psixologik integratsiyalashuvining nazariy-metodologik hamda amaliy jihatlarini o'rganilgan. Tadqiqot davomida ushbu toifadagi bolalarda o'ziga xos ichki pozitsiyaning shakllanganligi, xulq-atvorida kelajakka nisbatan zaif yo'nalganlik, agressivlikning ustunligi, vaziyatli fikrlash va unga mos xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi, o'ziga nisbatan ishonchning pastligi, kattalar, tengdoshlar va obyektiv borliqqa nisbatan tanlovchan munosabatning yetarli darajada shakllanmaganligi, mavjud muhitga haddan tashqari bog'lanib qolish, kognitiv fikrlash hamda mustaqil yo'naltirilganlikning sustligi kabi xususiyatlarning ustuvorligi aniqlangan.

Shuningdek, tutingan oilalar va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxs xususiyatlari hamda xulq-atvorida kuzatiladigan tajovuzkorlik, negativizm, asabiylashish, ta'sirchanlik, qo'rqqoqlik, oson bo'ysunuvchanlik, tanqid va so'zlarga toqat qilmaslik, norozilik reaksiyalariga moyillik hamda qiyin vaziyatlardan qochishga intilish kabi salbiy sifatning shakllanishi nafaqat organik omillar, balki muhim ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Jumladan, moddiy-maishiy sharoitlar, oilaviy an'analar va qadriyatlar, milliy turmush tarziga xos erkin muhitning mehribonlik uylarida cheklangan tarzda namoyon bo'lishi ushbu salbiy sifatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Sh.M. Rustamova ^[7] noto'liq oilalar hamda yolg'iz ona tarbiyasida voyaga yetayotgan qizlarda oiladagi shaxslararo munosabatlar, noto'liq oilalarda ijtimoiy rollarning noto'g'ri shakllanishi, erkak obrazisiz ulg'ayayotgan farzandlarda xulqiy og'ishlarning paydo bo'lishi, shuningdek otasiz katta bo'layotgan qizlarning tengdoshlari bilan munosabatlarida nizolar va ijtimoiy-psixologik tangliklarning yuzaga kelishi masalalarini tadqiq etgan. Tadqiqotchi o'zining "Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarda erkaklar to'g'risidagi tasavvurlar" mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'spirin yoshidagi qizlarning erkaklar haqidagi tasavvurlarini empirik jihatdan baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Mazkur ilmiy tadqiqotda noto'liq oiladagi onalarning o'spirin yoshidagi qizlari bilan o'zaro munosabatlari empirik holatini o'rganish, noto'liq oilalardagi o'spirin qizlarning oilada ota maqomi haqidagi tasavvurlarini konkret empirik izlanishlar asosida tahlil qilish, to'liq va noto'liq oilalardagi onalar hamda o'spirin qizlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining sabab va oqibatlarini aniqlash, shuningdek noto'liq oiladagi qizlarda ota obrazini shakllantiruvchi omillarni empirik jihatdan tadqiq etish orqali ota-onalar va oila psixologlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, tadqiqotchi tomonidan onalar va ularning farzandlariga mo'ljallangan "Oilada ota va qiz munosabatlari" nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnoma ishlab chiqilgan. To'liq va noto'liq oilalarda farzand tarbiyasi jarayonida uchraydigan muammolarning oldini olishga qaratilgan psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya va psixoprofilaktika ishlari uchun amaliy dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotchi psixologlar faoliyatida foydalanish tavsiya etilgan. Shuningdek, noto'liq oilalardagi o'smir va o'spirinlar bilan ona o'rtasidagi

munosabatlarni profilaktika qilish va korreksiyalashga qaratilgan psixotrening dasturi ham yaratilgan hamda amaliyotga tatbiq etilgan.

Sh.M. Rustamova [7] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda to'liq va noto'liq oila vakillari bo'lgan onalar, otalar hamda qiz farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda muammolar mavjudligi, ota obrazi orqali noto'liq oilada tarbiyalanayotgan qizlarning refleksiv obrazlarida notekisliklar kuzatilishi, ona bilan munosabatlarda ochiq va yashirin ziddiyatlarning mavjudligi dalillangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kognitiv jihatdan noto'liq oilada tarbiyalanayotgan qizlar to'liq oiladagi tengdoshlariga nisbatan o'z kelajagi haqida batafsilroq va mazmunliroq fikr yurita olishlari aniqlangan. Biroq, shunga qaramay, noto'liq oilalardagi o'spirinlarning shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy masofani saqlashi, tengdoshlar guruhida tortinchoq, xudbin va agressiv xulq-atvorni namoyon qilishi kabi xususiyatlar ham kuzatilgan.

Ta'kidlash joizki, keng ijtimoiy munosabatlar tizimida noto'liq oilada tarbiyalanayotgan qizlar to'liq oiladagi qizlarga nisbatan boshqalarning qo'llab-quvvatlashiga kuchliroq ehtiyoj sezishi aniqlangan. O'spirinlik davriga xos kattalik hissining ertaroq shakllanishi tufayli ularda empatiya hissining chuqurroq namoyon bo'lishi bilan bir qatorda, kattalarning psixologik ko'magiga ehtiyoj ham yuqori bo'lishi kuzatilgan. To'liq va noto'liq oilalardagi onalar hamda o'spirin qizlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish natijasida noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'spirin qizlarda shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy masofa va "bego-nalashuv" holatlarining mavjudligi dalillangan.

Ayniqsa, noto'liq oilalardagi o'spirin qizlarning oilada ota maqomi haqidagi tasavvurlarini baholash mezonlari asosida oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish istagining ustuvorligi bilan "o'zini katta bo'lib qolganlik" hissi o'rtasidagi ziddiyat mavjudligi aniqlangan. Bu esa ularda "uyushqoq" va "hamfikrlik-egalitar" oila tiplariga asoslangan oila qurish istagining shakllanishiga sabab bo'lishi bilan izohlangan. Shu bilan birga, ularning tasavvurlarida lider-ona obrazi o'ziga xos tarzda aks etishi, natijada mustaqillik, intiluvchanlik, mustaqil fikrlash va o'z istiqbolini kuchaytirib refleksiya qilishga oid ustanovkalarining shakllanishi, ayrim holatlarda esa tengdoshlariga nisbatan avtoritar, xudbin va agressiv munosabatlarning yuzaga kelishi empirik ma'lumotlar asosida isbotlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, tadqiqotimiz doirasida o'rganilayotgan muammo mamlakatimiz olimlari tomonidan pedagogik va psixologik jihatdan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, noto'liq oilalarda ona mavqeyi, noto'liq oila muhiti ta'sirida farzandlarda hayotiy qadriyatlarga nisbatan munosabatning shakllanishi, bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, bola shaxsining shakllanish jarayonlari, to'liq oilalarda oilaviy zo'ravonlikning yuzaga kelish omillari, ona va bola munosabatlarining psixologik xususiyatlari, ayollarda aybdorlik hissining namoyon bo'lishi, tutingan oilalar va bolalarning o'zaro psixologik moslashuvi, harbiylar oilasida rollar taqsimoti hamda noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarda erkaklar haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga oid muammolarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik va pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi noto'liq oilalarda ona va farzandlar munosabatlarining ilmiy-nazariy tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, keyingi bobda noto'liq oiladagi ona va farzandlarda mazkur fenomenning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot hamda tajriba-sinov ishlari natijalari bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari // psix.f.n...diss. avtoref. -T.: O'zMU, 2004. – 7-8-b.
2. Yunusova G.S. To'liq va noto'liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri // Psix. f. bo'yicha fals. f. doktori (PhD)... diss. avtoref. – T.: TDPU, 2018. – 7-9 b.
3. Asranbayeva M.X. Noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari // Ped. f. bo'yicha fals. f. doktori (PhD)... diss. avtoref. – Namangan.: NamDU, 2020. – 7-8 b.
4. Shaumarova Z.A. Noto'liq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari // Ped. f. bo'yicha fals. f. doktori (PhD)... diss. avtoref. – T.: O'PFITI, 2021. – 7-8 b.
5. Abdullayeva D.U. O'zbek oilalarida on va bola munosabatlarining ijtimoiy psixologik asoslari // Psix. f. doktori (DSc)... diss. avtoref. – T.: TDPU, 2023. – 9-11 b.
6. Islamova D.B. Tutingan oilalar va bolalar o'zaro psixologik moslashuvining ijtimoiy-etnik xususiyatlari // Psix. f. bo'yicha fals. f. doktori (PhD)... diss. avtoref. – T.: SamDU, 2024. – 6-8 b.
7. Rustamova Sh.M. Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarda erkaklar to'g'risidagi tasavvurlar // Psix. f. bo'yicha fals. f. doktori (PhD)... diss. avtoref. – T.: FarDU, 2024. – 7-9 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.